

Informatika va axborot texnologiyalari fanining xalq ta'limi tizimidagi yangi bosqich davri

Bahodir Xurramov,

*Termiz davlat universiteti
huzuridagi xalq ta'limi
xodimlarini qayta tayyorlash
va ularning malakasini
oshirish hududiy markazi
«Aniq va tabiiy fanlar
metodikasi» kafedrasini
katta o'qituvchisi*



Bugungi kunda ko'plab davlatlar axborot-kommunikatsiya texnologiyalari(AKT)ni iqtisodiy-ijtimoiy sohalarga, xususan, ta'lim jarayoniga joriy etishdagi eng dolzarb muammoga, u ham bo'lsa fan o'qituvchilarining AKT-savodxonligi, fanlarni o'qitishda AKT vosita va metodlaridan samarali foydalanish bo'yicha tayyorgarligi muammosiga duch kelmoqdalar. Mamlakatimizda ham mazkur muammoga jiddiy e'tibor qaratildi. Chunki hozirgi davrda, jamiyatdagi jadal rivojlanish, o'zgarishlar bilan bir qatorda, ta'lim tizimida yangilanishlar yuzaga kelmoqda.

Tarixdan ma'lumki, mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki kunlaridan oq barcha sohalar qatori, AKT sohasining rivoji ham alohida dolzarb masala sifatida begilandi. Bu borada tadqiqotchilim N.Sh.Turdiyev va boshqalar muallifligidagi o'quv-uslubiy qo'llanmada quyidagi: «O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2004-yil 21-maydagi Farmoniga muvofiq qabul qilingan «2004-2009 yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to'g'risida»gi PF-3431 son Farmonida belgilangan besh ustuvor yo'nalishning uchinchi bandida umumta'lim maktablari uchun Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini takomillashtirish vazifasi qo'yildi. Yangi tahrirdagi DTS va modernizatsiya qilingan o'quv dasturlarini bosqichma-bosqich (2004-2009 yillar) tajriba-sinovdan o'tkazish belgilandi va bu ish amalga oshirildi. Modernizatsiyalash va bosqichma-bosqich o'tkazilgan tajriba-sinovlar natijasida barcha fanlar DTS va o'quv dasturlariga tegishli o'zgartirishlar kiritib borildi», — ma'lumotlar keltirilgan.

Yangi modernizatsiya qilingan o'quv reja va dastur asosida 5-sinf informatika darsligi B.Boltayev, M.Mahkamov, A.Azamotov, S.Raxmonqulovlar tomonidan darsliklar tayyorlanib maktablarga joriy etildi. B.Boltayev boshchiligidagi mualliflar guruhi tomonidan 2005-2006 o'quv yilidan boshlab, tajriba-sinovdan o'tgan 9-sinf informatika darsligi yangi talqinda maktablarga joriy etildi. Bunda asosan Beysik dasturlash tili o'rniga Paskal dasturlash tili bilan almashganligi, darslik asosan kompyuter bilan bevosita amaliy mashg'ulotlar olib borishga moslashganligi va mavzular to'liqroq yoritilganligi bilan farq qiladi. 2006-yilda darsliklarning tatbiq etishning yangi ko'rinishi ishlab chiqildi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun yaratilgan «Informatika» darsligi asosida elektron darslik yaratildi. (O'zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasi, Guvohnoma DGU 01052, 13.02.2006)

Mamlakatimiz rahbarining tashabbusi bilan 2006-2007 o'quv yilida 5-sinf o'quvchilariga informatika darslarining o'qitilishini ta'minlash va tajriba-sinov o'tkazish yo'lga qo'yildi. 2007-2008 o'quv yilidan boshlab, 6-sinf, 2008-2009 o'quv yilidan boshlab, 7-sinf informatika darsining o'tilishi yo'lga qo'yildi. Darsliklar va ushbu darsliklarga mos elektron darslik ketma-ket chiqarila boshlandi. Mualliflar tomonidan darsliklar yillar davomida qayta nashrdan chiqarilib takomillashtirilib borildi. Takomillashtirilgan Davlat ta'lim standartlari Hukumat komissiyasining 2009-yil 16-dekabrda 07/1-356-sonli majlis bayoni bilan tasdiqlandi. 2010-yil 15-fevralda «O'zstandart» agentligining 05-182-sonli qarori bilan Davlat ro'yxatidan o'tkazildi.

Zamon taraqqiy etishi, jamiyatga zamonaviy bilimlarning kirib kelishi munosabati bilan yangi darsliklarga bo'lgan ehtiyoj sezila boshladi. O'quv jarayonini jahon standartlariga moslashtirish talabi qo'yildi. Bilimlarini kompetentsiyalarga transformatsiya qilish orqali insonlar nafaqat iqtisodiy va texnologik taraqqiyotga o'z hissalarini qo'shadilar, balki shaxsiy muvaffaqiyat va farovonlikka erishadilar. Bunday kompetentsiyalarni belgilash orqali yoshlarimizni kelajak hayotga qay darajada tayyorlik darajasini baholash mumkin. Yoshlarimiz kelajakda muvaffaqiyatli hayot kechirishlari, jamiyatda o'z o'rnini topishlari hamda ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarga integratsiyalashuvi uchun qanday kompetentsiyalarga ega bo'lishlari kerak, degan savol butun dunyo ta'lim hamjamiyati oldida turgan dolzarb mavzuga aylangan. Shu sabab informatika fanidan Davlat ta'lim standartlarni yangilash, o'quv dasturlarni takomillashtirish — informatika faniga oid kompetentlikni (AKTkompetentlikni) kiritishni taqozo etdi.

Ushbu vaziyatlardan kelib chiqib, Oliy va o'rta maxsus ta'lim, Xalq ta'limi vazirliklari hamda O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazining «Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi umumta'lim

fanlari bo'yicha o'quvchilarda kompetentsiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari loyihalarni tajriba-sinovdan o'tkazish to'g'risida»gi qo'shma buyrug'iga asosan respublikamiz ko'plab ta'lim muassasalarida 2014-2015 o'quv yilidan tajriba-sinov ishlari boshlab yuborildi. Shu munosabat bilan Surxondaryo viloyatining Sherobod tumani 17-umumiy o'rta ta'lim maktabida ham tajriba-sinov ishlari olib borildi. Ushbu ta'lim muassasasiga informatika fani bo'yicha rahbarlik ishlari tashkil etilib, uzluksiz metodik yordam ko'rsatib borildi. Tajriba-sinov ishlari 2016-2017 o'quv yilida yakunlanib, to'plangan ma'lumotlar, takliflar va xulosalar asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi «Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 187-sonli qarori qabul qilindi hamda kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standarti ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi.

Ushbu qarorga muvofiq «Informatika hisoblash texnika asoslari» fani «Informatika va axborot texnologiyalari» nomiga o'zgartirildi. Ushbu fan o'rta umumta'lim maktablarining 5-sinfidan boshlanib, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida umumta'lim o'quv fani sifatida uzviy davomiylik belgilab qo'yildi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari informatika ta'limida o'rganilgan o'quv materiallarining akademik litsey va kasb-hunar kollejlari informatika ta'limida takrorlanmasligi, o'quvchilarning yosh psixologik xususiyatlari, umumiy o'rta ta'lim tayyorgarligiga mos kelishi hamda informatika tushunchalarni asta-sekin oddiydan murakkabga shakllantirish e'tiborga olindi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-7 sinflarning har birida Informatika va axborot texnologiyalari -17 soatdan, jami - 51 soat, 8-sinfda -34 soat, 9-sinfda - 68 soat taqvim-mavzuli reja asosida o'qitish yo'lga qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-sentabrdagi «Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktabni tashkil etish to'g'risida»gi PQ-3274 son Qarori 1-bandida Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab tashkil etish taklifi berildi. Qarorning 4-bandiga asosan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan belgilangan kvota asosida 5-sinfdan tanlov asosida qabul qilish vazifasi yuklatildi hamda 5-bandida 2017-2018 o'quv yilidan boshlab O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda kutubxona fondini zarur darslik va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash choralarni ko'rish topshirig'i berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 16-iyunda Uchtepa tumanidagi 78-sonli maktabga tashrifi chog'ida 10-11 sinflar xususida to'xtaldi. Ushbu maktabda tajriba sifatida 11 yillik ta'limni qayta tiklash taklifi berildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 7-iyuldagi 01-07/1-1554-son bayoniga asosan Ishchi guruh tomonidan joriy yilning 10-20 iyul kunlari bevosita joylarga chiqqan holda umumiy o'rta ta'lim muassasalari holati o'rganildi:

Faoliyat yuritayotgan 9680ta maktablarning 9-sinflarini 467 020 nafar o'quvchi tugatdi.

9-sinf bitiruvchilari va ularning ota-onalari bilan o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, ulardan 352 ming 523 nafari (75,5%) 10-sinfda, 11 ming 600 nafari (2,5%) litseylarda, 102 ming 43 nafari (21,8%) kasb-hunar kollejlari o'qish istagini bildirdi.

Birinchi vazifa sifatida e'tibor o'quv dasturi va kitoblarga qaratildi va shu xususida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 25-iyuldagi 803-F sonli Farmoyishi qabul qilindi. Mazkur

Farmoyish bilan 10-11 sinflarning o'quv rejasini hamda darsliklarni nashrga tayyorlash va chop etishni amalga oshiradigan nashriyotlar va bosmaxonalar ro'yxati tasdiqlandi. 11 yillik majburiy umumiy ta'limga o'tishda o'zimizdagi oldingi yillardagi tajribalar, 11 yillik ta'limda faoliyat ko'rsatayotgan Buyuk Britaniya, Qozog'iston, Rossiya va Boltiqbo'yi mamlakatlari tajribalari o'rganilib chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarorining 3-ilovasiga qo'shimcha tarzda Ijodiy guruhlar tomonidan O'rta ta'limning (10-11 sinflar uchun) umumta'lim fanlari bo'yicha 12ta fandan malaka talablari ishlab chiqildi. O'quv reja asosida o'rta ta'limning informatika va axborot texnologiyalari fani 10-11 sinflari uchun: 10 — 68 soat, 11-sinfda — 68 soat taqvim-mavzusi reja asosida o'qitish yo'lga qo'yildi. Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev huzuridagi «Umumiy o'rta ta'lim sohasida o'tkazilayotgan islohotlar samaradorligi va xalq ta'limi tizimidagi muassasalarning 2018-2019 kuz-qish mavsumi tayyorgarlik holati to'g'risida» 2018-yil 2-noyabr kuni o'tkazilgan majlis bayonining 12-bandida «Uch oy muddatda informatika fani o'quv dasturini tanqidiy ko'rib chiqib, ushbu fanni o'qitishga zamonaviy mazmun kiritish va ilg'or uslublarni joriy etish bo'yicha choralar ko'rish» hamda 21-bandida 2020-2021 o'quv yilidan boshlab, 1-11 sinflar uchun informatika va axborot texnologiyalari hamda chet tili fanlaridan ilg'or xorijiy darsliklarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish maqsadida, 3 oy muddat ichida tajriba-sinov ishlari o'tkazilib, 2020-yil 1-fevralgacha Vazirlar Mahkamasiga tegishli takliflar kiritish belgilandi. Xulosa qilib, shuni ta'kidlash zarurki, bugungi kun yoshlari zamon bilan hamqadam barkamol shaxs sifatida davr talabiga muvofiq zamonaviy bilimlarni egallashlari va ularni boshqa soha bilimlari bilan uyg'unlashtirib borishlarida informatika va axborot texnologiyalari fani muhim ahamiyatga molik bo'lib hisoblanadi.

Foydalanilgan manbalar:

1. Кабулов В.К. О некоторых методах расчёта плоского напряженного состояния прямоугольной пластинки: Дис. ... канд. техн. наук/Ташкент, 1952. — 118-120 с.
2. Абуталиев Ф.Б. Некоторые вопросы околозвуковой динамики: Дис. ... канд. физ.-мат. наук/Ташкент, 1961. — 139-146 с.
3. B.Boltayev va boshqalar. Informatika va hisoblash texnikasi asoslari.// Darslik, -Tosbkent, «O'zbekiston milliy ensklopediyasi», 2015.- 144 b, B. 10.
4. Taylaqov N.I., Informatika ha'm esaplaw texnikasi tiykarlari. 9-klass uchun sabaqliq. -Nukus: «Bilim» baspasi, 2002. -152 b. (Qoraqalpoq tilida)
5. Turdiyev N.Sh., Asadov Yu.M., Akbarova S.N., Temirov D.Sh. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetentsiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari. //O'quv-uslubiy qo'llanma.(1-qism). Tosbkent, 2015. - 160 b; B. 5-6 b.
6. B.Boltayev, M.Maxkamov, A.Azamatov, S.Raxmonqulova. Informatika. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 5-sinf darslik. «Cho'lpon» nashriyoti — 2006-yil. -72 bet.
7. B.Boltayev, M.Maxkamov, A.Azamatov, S.Raxmonqulova. Informatika. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 6-sinf darslik. «O'zbekiston» nashriyoti — 2009-yil. -72 bet.
8. Umumiy o'rta ta'limning informatika va axborot texnologiyalari fanidan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Tosbkent, 2017. 5-6 b.
9. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (<http://lex.uz/docs/3339073>) (2018 yil sentyabr)
10. Umumiy o'rta ta'limning informatika va axborot texnologiyalari fanidan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Tosbkent, 29-30 b. (3 -ilova) 